



## TASVIR VA IFODADA O'ZIGA XOSLIK

Yo'ldosheva Lobar

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Omon Muxtorning "Aflotun" romani obyekt qilib olingan bo'lib, unda, asosan, roman poetikasi, obrazlar tizimi, ayniqsa, Suqrot, Rauf va Usmon obrazlari tahliliga e'tibor qaratilgan.

*Kalit so'zlar:* roman, obraz, qahramon, ramz, individuallik, xarakter, personaj.

### KIRISH

Yozuvchi Omon Muxtor o'zining izlanishlari bilan zamonaviy o'zbek romanchiligiga samarali hissa qo'shmoqda. Uning bir necha qissa va romanlari o'quvchilarga yaxshi tanish. Ayniqsa, adibning keying yillarda yaratgan "Egilgan bosh", "Ming bir qiyofa", "Ffu" kabi asarlari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

"Omon Muxtor romanlari shakl-shamoyili, syujet tuzilishi, ifoda tarziga ko'ra yangicha; ularda zamonaviy jaxon romanchiligi tajribalarini yodga tushiruvchi xususiyatlar talaygina", deb yozganda munaqqid U.Normatov tamomila haq.

Yozuvchining "Aflotun" nomli romani ("sharq yulduzi", 1997, 5-son) tarixiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, muqaddima va to'rt qismdan iborat: Arafa (muqaddima o'rnida), Odamlar va soyalar, Begona hayot, Muhabbatning Saroyi, Duno tasodiflarga to'la.

Romandagi voqea-hodisalar real hayot, obyektiv borliqdan ko'ra ko'proq qahramonlarning hayolida, ongida kechadi. Qahramonlar ruhiyatida reallik bilan xayolotning tutashuvidan iborat g'aroyib dunyo, hayotning o'ziga xos badiiy shakli yaratiladi. Natijada u dunyo bilan bu dunyo orasidagi chegara yo'qoladi. Hayot va xayol o'rtasidagi Suqrot nisbatda tutashtiruvchi qahramon vazifasini o'taydi.

Muqaddimada yozuvchi buyuk faylasuf olim Suqrot va Kriton o'rtasidagi rivoyatni keltirdi. Ma'lumki, Suqrot haykaltarosh Safroniskning o'g'li, o'z e'tiqodi uchun sud qilinib, qatl etilgan insoniyat tarixidagi birinchi olim edi. Rivoyat suhbat-bahs uslubida beriladi. Qolaversa, keying qisimlarda ham Suqrot haqida rivoyatlar orqali butun asar ruhini belgilashga harakat qiladi.

Asar davomida muallif o'quvchini Suqrotni izlashga davit etadi. Suqrot o'z zamondoshlari uchun ham, Navoiy va uning zamondoshlari hamda bugungi o'quvchi uchun ham ideal shaxs, orzusidagi olimdir.

Roman qahramonlaridan biri usmon suvsizlik, tashnalik azobidan qiynalyotgan, cho'lda ketayotgan odamlarni qutqarish maqsadida birinchi uchragan quduqqa tushganda lagan atrofida bir necha kishi ko'r to'qib o'tirishadi. Usmon ulardan tashnalikdan azob chekayotgan quduq tepasidagi odamlar uchn suv so'raydi, davradagilar suv kerak bo'lsa Raufni izlab topishni tavsiya qiladi.



“ – Sen Raufni izla. Shunda suv yo‘li ochiladi! – deyishadi mis lagan atrofda, murosa qilgandek ohangda.

Rauf kim? Qaysi Rauf?! Usmon nega bu odamni izlashi kerak?! Qayerdan, qanday izlaydi?!

Usmonni qiynagan ana shunday savollar, albatta, o‘quvchini qiynaydi. Voqea-hodisalarga sinchiklab qaralganda, hayot haqiqati o‘zgacha shaklda tavsif etilganiga amin bo‘lasiz. Bir qarashda, tartibsiz tuyulgan syujet qirralaridan teran ma‘no anglaysiz. Romandan Raufning kimligini izlaysiz. Haqiqatan ham “rauf kim?” degan savol o‘quvchini izlanishga undaydi. Bu izlanish jarayonida yozuvchining o‘zi “yordam”ga keladi va kitobxonga Rauf bu – asrimiz siymolaridan biri, ulug‘ olim va adib Abdurauf Fitrat ekani ma‘lum bo‘ladi.

“Dunyoda yagona ezgulik – bilimli bo‘lish, yagona dushmanlik jaholatdir”, degan edi Suqrot. Asardagi Rauf obrazini ham yozuvchi o‘zbek xalqining 20-asr Suqroti darajasiga ko‘tarishga harakat qiladi.

Omon Muxtor asarida ayrim tarixiy shaxslar nomlari asl holda berilsa, ayrimlari o‘zgartirib beriladi. Shu ma‘noda yozuvchi Rauf obrazi orqali, asrimiz boshlarida turkiy xalqlarning ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan, ma‘rifatparvar, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat siymosini yaratishga harakat qiladi. Fitrat ham Suqrot kabi jaholat insoniyat dushmani, yagona ilm insoniyat do‘sti deb bilgan allomalaridan edi.

Yozuvchi Suqrot va Rauf taqdiridagi o‘xshashliklarni asar voqea-hodisalarida bir-biriga bog‘lab bermoqchi bo‘lgan, lekin ayrim o‘rinlarda uning bu niyat ijobiy samara bermagan. Chunki o‘quvchi ko‘z o‘ngida goh afsonaviy Suqrot gavalantirilib, markaziy qahramon sifatida ko‘rsatishga harakat qilinsa, goh ma‘rifatparvar Rauf obrazi tasviridagi Suqrot bilan almashinadi.

Romanda garchi yaqin o‘tmish voqealaridan so‘z ochilsa-da, uni hujjatli asar deb bo‘lmaydi, chunki qalamga olingan voqea-hodisalar to‘laligicha, batafsil yoritilmaydi. Ayrim lavhalardagina jadidchilik harakatining vakillarini, ular faoliyatining ayrim qirralarini uchratamiz.

Asarda Rauf bilan bog‘liq ayrim lavhalarni Fitrat hayotidagi tarixiy faktlar bilan qiyoslash mumkin:

Omon Muxtor Rauf va Fayzullo Xo‘ja o‘rtasidagi munosabatni tarixiy fakt asosida yoritadi. Barcha tarixiy faktlarda va ilmiy adabiyotlarda Fitrat va Fayzulla Xo‘jayevlarni Buxoro jadidchilik harakatining asoschilaridan bo‘lganligi ta‘kidlanadi. Qolaversa, ular yaqin do‘st bo‘lishgan. Shu o‘rinda Suqrotning so‘zlarini eslaylik: “Hayotda ko‘p narsalar keraksiz, ularsiz yashash mumkinday”. Asrimiz boshlaridagi ma‘rifatparvar jadidlar uchun ham ko‘p narsa kerak emas edi.



Ularga millatning, xalqning ozodligi, farovonligi, mustaqilligi kerak edi, xolos. Jadidlar shu yo'lda o'z jonlarini fido qildilar. Millat taqdiri uchun kurashni o'z e'tiqodi deb bildilar.

Aflotunning ma'lumotiga ko'ra, Suqrot ikki marta uylangan, uchta farzandi bor. U o'z e'tiqodi yo'lida qatl qilingan. Qamoqdalik paytida, o'z o'limini kutish barobarida lira chalishni ham o'rgangan. Hayotda Suqrot kabi faylasuf olimlar millatning faxri, xalqning kelajagi hisoblanishgan. Lekin ular o'zlari yashab ijod etgan jamiyat uchun doimo begona bo'lishgan. Romandagi Rauf ham ana shunday shaxslardan hisoblanadi. Asarning syujet linyasida asosan Suqrot va Rauf kabi faylasuf olimlar harakat qilsa-da, ular atrofida Usmon, Said, Sobir kabi qahramonlar ham qatnashadilar va bu qahramonlar Rauf xarakterini, fikr va tuyg'ular dunyosini kengroq, ishonchliroq qilib tasvirlashga imkon beradi.

Suqrotga "Afinaliklar seni o'limga mahkum qildilar" deyishganda, "Tabiyat ularning hammasining ustidan hukm chiqargan", deb javob bergan.

"...Sizlar, afinalik janoblar, biroz shoshdinglar. Shaxrimizga g'ayrlik bilan qaraydiganlar sizlardan endi ayb izlashadi: nom qozongan mutafakkir Suqrotni o'ldirdinglar, deb yuzlaringga qora surkashadi. Men balki mutafakkir ham emasdirman, lekin ular buni ta'kidlab, sizlarning bo'ynilaringizga tavqi la'nat osishadi", deydi Suqrot.

Insoniyat tarixidan shu narsa ayonki, Suqrotga o'xshagan faylasuf, mutafakkir olimlarini zamondoshlari tiriklik chog'larida hurmatini joyiga qo'yib, ulardan millattaraqqiyoti yo'lida foydalanishni o'ylamaydilar. Xalq, millatana shunday ilm olamida dahoga aylangan kishilarni o'limdan keyin qdrlab o'rgangan. Oqibatda ma'naviyat dunyolari qashshoqlashib, taraqqiyotdan orqada qoladilar. Tabiyat millatni shu yo'l bilan jazolaydi. Xalq ustidan mudhish hukm chiqaradi. Suqrot ham o'z e'tiqodi yo'lida qatl etiladi.

Yozuvchi asrimiz boshlaridagi jadidlarning fojivaviy taqdirini Rauf vositasida Suqrotning o'limi bilan bog'lamoqchi bo'ladi. Ma'lumki, asrimiz boshlarida millatparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan harakat boshlangan jadidlarni mustabid tuzim yigirmanchi yillarning boshlaridanoq, har xil fitnalar bilan o'ldirib, (Behbudiyning o'limini eslang), millatchi sifatida qoralay boshladi.

30-yillarga kelib "Millatchilar" "xalq dushmani"ga aylandi. Ayrimlari Sibir o'lkalariga surgun qilingan bo'lsa, ayrimlari qatl etildilar. Xalq esa, o'z millatining saqlab qololmadi.

"Raufni qayerdan, qanday toppish mumkin?! To'xta! Balki xalq dushmani bo'lib, o'z mahri – mamlakatidan olib ketilgan, otilgan, osilgan, qabri nomalum



(go‘ri-qafani yo‘q) ming-minglab jafodiydlarning so‘nggi adabiy shaxri-mamlakatidir bu? Rauf shulardan biri bo‘lsa, yana-uni qayerdan, qanday topasan?!”

Ma‘lumki, 30-yillarda jadidlar bilan muloqatda bo‘lgan, ularning asarlarini o‘qigan kishilar “dum” sifatida qatag‘onga uchragan edi. Bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Yozuvchining ushbu ritorik savollariga hamohang ravishda biz ham romandan ulug‘ adib Abdurauf Fitratning aniq siymosini izlaymiz. Xuddi sarson qahramon Usmon kabi romandagi har bir lavhadan Fitrat hayoti bilan bog‘liq ma‘no kutamiz... Zero, Omon Muxtor kabi istedodli adiblarning izlanishlari sabab bo‘lib, o‘zbek nasrida ham ulug‘ olim va adib Fitrat siymosi o‘zining to‘laqonli aksini topsa ajab emas.

### **XULOSA**

Demak, Omon Muxtorning “Aflotun” romani aynan mikromakonlar tasviridagi noanaviylik, asarning o‘ziga xos syujet qurilmasi jihatidan to‘la ma‘noda modern adabiyoti namunalari sirasiga kiradi. Umuman, bunday uslub Omon Muxtorning ko‘pgina asarlarida yetakchi mavqe egallaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ikromov O. O‘zbek romanlarida, ijobiy qahramon muammosi. Toshkent. 1970.
2. Omon Muxtor. Aflotun. Toshkent: Manaviyat, 1998.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. “Navoiy universiteti”; - Toshkent; 2018.
4. Quvvatova D. Zamonaviy poemalarda afsona va rivoyatlar stilizatsiyasi. O‘TA jurnali. 2-son, 2015.
5. Israilova, S. (2022). “KO ‘K” leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
6. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2002 yil.
7. Saodat, I., & Ma’suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).